

O‘ZBEKISTON TURIZM SALOHIYATINI OSHIRISHDA DAVLAT SIYOSATI VA RESURLAR INTEGRATSIYASI

Olimov Jahongir Bo’riboevich

Qo’qon Davlat Universiteti katta o’qituvchisi, t.f.f.d.,

Qo’qon, O’zbekiston.

Annotasiya: Ushbu maqolada O’zbekistonda turizmni rivojlantirish jarayonlari, ularning iqtisodiy, tashkiliy va infratuzilmaviy xususiyatlari hamda istiqbolli yo’nalishlari yoritib berish hamda hisoblanadi. O’zbekistonda turizmni rivojlantirishning hozirgi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda uning istiqbollari ilmiy asosda ishlab chiqish va takomillashtirish bo’yicha amaliy tavsiyalar berishga qaratilgan,

Kalit so’z va iboralar: Karvonsaroy, xalqaro turizm, raqamli gid, “Visit Uzbekistan”, “O’zbekturizm”, ichki va tashqi turizm, xalqaro imijini, Ekoturizm, smart-turizm, ziyorat markazlari,

STATE POLICY AND RESOURCE INTEGRATION IN ENHANCING THE TOURISM CAPACITY OF UZBEKISTAN

Olimov Jahongir Boriboevich

Senior Lecturer, Kokand State University, PhD,

Annotation: This article discusses the processes of tourism development in Uzbekistan, their economic, organizational and infrastructural features and promising directions. The article is aimed at analyzing the current state of tourism development in Uzbekistan, identifying existing problems and providing practical recommendations for developing and improving its prospects on a scientific basis,

Keywords and phrases: Caravanserai, international tourism, digital guide, “Visit Uzbekistan”, “Uzbektourism”, domestic and foreign tourism, international image, Ecotourism, smart tourism, pilgrimage centers,

ФОРМИРОВАНИЕ ТУРИСТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В УЗБЕКИСТАНЕ: ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ И РЕСУРСНЫЙ ПОТЕНЦИАЛ

Аннотация: В данной статье рассматриваются процессы развития туризма в Узбекистане, их экономические, организационные и инфраструктурные особенности, а также перспективные направления. Цель статьи — анализ текущего состояния развития туризма в Узбекистане, выявление существующих проблем и предоставление практических рекомендаций по развитию и улучшению его перспектив на научной основе.

Ключевые слова и фразы: караван-сарай, международный туризм, цифровой гид, «Visit to Uzbekistan», «Узбектуризм», внутренний и внешний туризм, международный имидж, экотуризм, умный туризм, паломнические центры.

KIRISH

Tarixdan ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi turizm sohasida boy tarixiy-madaniy merosga, noyob tabiiy resurslarga va strategik geografik joylashuvga ega bo'lgan mamlakat sifatida katta salohiyatga ega. Miloddan avvalgi II asrdan boshlab Buyuk Ipak yo'lining faol ishlashi natijasida Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz kabi qadimiy shaharlar xalqaro karvon yo'llarining asosiy bekatlariga aylangan. Bu shaharlar orqali nafaqat savdo karvonlari, balki sayyohlar, elchilar, olimlar va ziyoratchilar ham harakatlangan. Aynan shu davrlarda hududda mehmondo'stlik an'anasi, karvonsaroilar tizimi va yo'l infratuzilmasi shakllangan bo'lib, ular bugungi zamonaviy turizm tizimining ilk

ko‘rinishlari sifatida baholanadi. Islom uyg‘onish davrida, ayniqsa IX–XII asrlarda Movarounnahr hududi ilm-fan markaziga aylangan. Bu davrda Imom al-Buxoriy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar faoliyati nafaqat mintaqaviy, balki xalqaro miqyosdagi ilmiy aloqalarning kengayishiga sabab bo‘lgan. Natijada ilm izlab keluvchi sayohatchilar oqimi ortgan va bu jarayon ham tarixiy turizmning shakllanishiga xizmat qilgan. Temuriylar davrida, ayniqsa Amir Temur va uning avlodlari hukmronligi yillarida Samarqand jahonning eng go‘zal va obod shaharlaridan biriga aylangan. Bu davrda nafaqat siyosiy va iqtisodiy aloqalar, balki diplomatik sayohatlar ham keng rivojlangan. Yevropa va Osiyo mamlakatlaridan elchilar, sayyohlar va tarixchilar kelib, bu hududning madaniy hayotini o‘rganishgan. O‘zbekistonning turistik salohiyati asosan tarixiy shaharlar — Samarqand, Buxoro, Xiva va Shahrisabz kabi qadimiy markazlar bilan bog‘liq [1].

Turizm sohasida olib borilayotgan islohotlar natijasida viza tartibining soddalashtirilishi, elektron viza tizimining joriy etilishi va ayrim davlatlar uchun vizasiz rejimning yo‘lga qo‘yilishi xorijiy turistlar oqimining oshishiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, xalqaro aviayo‘nalishlarning kengayishi va transport infratuzilmasining yaxshilanishi ham turizm rivojiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Biroq, mavjud yutuqlar bilan bir qatorda turizm sohasida ayrim muammolar ham saqlanib qolmoqda. Jumladan, xizmat ko‘rsatish sifati barcha hududlarda bir xil darajada emas, malakali kadrlar yetishmovchiligi seziladi, ayrim hududlarda infratuzilma hali yetarli darajada rivojlanmagan. Bundan tashqari, marketing va xalqaro reklama faoliyatini yanada kuchaytirish zarurati mavjud. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalarning joriy etilishi turizm sohasida yangi imkoniyatlarni ochib bermoqda. Onlayn bron qilish tizimlari, turistik platformalar va mobil ilovalar turistlar uchun qulaylik yaratib, xizmatlar tezkorligini oshirmoqda. Bu esa O‘zbekiston turizm mahsulotining global bozordagi raqobatbardoshligini kuchaytiradi [2].

METODOLOGIYA VA ADABIYOTLAR TAHLILI

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda turizm sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti va xalqaro aloqalar tizimida muhim o'rin egallagan bosqichma-bosqich jarayon sifatida shakllandi. 1991-yilda mustaqillikka erishilgach, turizm sohasi ham yangi iqtisodiy va siyosiy sharoitga mos ravishda qayta tashkil etildi hamda bozor munosabatlari asosida rivojlantirish yo'liga o'tdi. Ushbu davrda turizmning rivojlanishi shartli ravishda bir necha asosiy bosqichlarga bo'linadi. Birinchi bosqich (1991–2000-yillar) turizm tizimini shakllantirish davri bo'lib, bu davrda sobiq ittifoqdan qolgan markazlashgan boshqaruv tizimi o'rniga milliy turizm siyosatini yaratish zarurati paydo bo'ldi. 1992-yilda “O'zbekturizm” Milliy kompaniyasining tashkil etilishi turizmni davlat darajasida boshqarishning dastlabki institutsional asosini yaratdi. Shu bilan birga, turizm infratuzilmasi, mehmonxonalar, transport va xizmat ko'rsatish tizimi qayta shakllantirila boshlandi. Biroq bu bosqichda xalqaro standartlarga mos xizmat ko'rsatish tizimi hali to'liq rivojlanmagan, moddiy-texnik baza esa cheklangan edi. Ikkinchi bosqich (2000–2016-yillar) turizm sohasining barqarorlashuvi va bosqichma-bosqich rivojlanish davri hisoblanadi. Bu davrda mamlakatda iqtisodiy islohotlar chuqurlashdi, xususiy sektorning turizmga kirib kelishi kengaydi. Mehmonxonalar, sayyohlik firmalari va transport xizmatlari soni ortdi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarning infratuzilmasi yaxshilandi, madaniy meros obyektlarini saqlash va restavratsiya qilish ishlari kuchaydi [3]. Shu bilan birga, xalqaro turizm aloqalari kengayib, O'zbekiston ko'plab davlatlar bilan turizm sohasida hamkorlikni yo'lga qo'ydi. Bu davrda turizm asosan madaniy-tarixiy yo'nalishda rivojlandi. Uchinchi bosqich (2017-yildan hozirgacha) turizm sohasida chuqur islohotlar va ochiqlik siyosati davri sifatida tavsiflanadi. Ushbu davrda turizm davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Vizaviy rejimning soddalashtirilishi, elektron vizaning joriy etilishi va “open sky” siyosati natijasida xorijiy sayyohlar oqimi sezilarli darajada oshdi. Shuningdek, “Visit Uzbekistan” brendining rivojlanishi, turizm klasterlari tashkil etilishi va raqamli

turizm xizmatlarining joriy etilishi sohaning yangi bosqichga chiqishiga sabab bo'ldi. Ichki turizmni rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratilib, aholining madaniy va rekreatsion sayohat madaniyati shakllana boshladi. Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda turizm nafaqat iqtisodiy soha, balki mamlakatning xalqaro imijini mustahkamlovchi muhim strategik yo'nalishga aylangan. Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan islohotlar natijasida turizm sohasi bosqichma-bosqich shakllanib, zamonaviy bozor tamoyillari asosida rivojlanayotgan dinamik tarmoqqa aylandi [4].

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'zbekistonning tarixiy shaharlariga — Samarqand, Buxoro va Xivaga xorijiy sayyohlar oqimi asta-sekin tiklana boshladi. Bu esa mamlakatning xalqaro turizm bozoriga chiqishi uchun dastlabki imkoniyatlarni yaratdi. Shu bilan birga, madaniy meros obyektlarini saqlash va ularni restavratsiya qilishga e'tibor kuchaydi, bu esa kelajakdagi madaniy-tarixiy turizm rivoji uchun asos bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga, bu bosqichda turizm sohasida bir qator muammolar ham mavjud edi. Xususan, transport va mehmonxona xizmatlarining yetarli darajada rivojlanmaganligi, xalqaro standartlarga mos servis tizimining shakllanmaganligi hamda malakali kadrlar yetishmasligi sohaning tez rivojlanishiga to'sqinlik qilgan omillar sifatida namoyon bo'ldi. Umuman olganda, 1991–2000 yillar O'zbekistonda turizm sohasining institutsional asoslari yaratilgan, uning huquqiy va tashkiliy poydevori qo'yilgan hamda xalqaro turizm tizimiga integratsiya jarayonlari boshlangan muhim shakllanish davri hisoblanadi [5]. Bu bosqich keyingi rivojlanish bosqichlari uchun mustahkam asos yaratib berdi. Ikkinchi bosqich (2000–2016 yillar) O'zbekistonda turizm sohasining barqarorlashuv va bosqichma-bosqich rivojlanish davri hisoblanadi. Ushbu davrda turizm tizimi shakllanish bosqichidan o'tib, yanada barqaror institutsional va iqtisodiy asosga ega bo'la boshladi. Mamlakatda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar, xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi hamda xalqaro aloqalarning kuchayishi turizmning

rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Bu bosqichda turizm sohasida davlat siyosati yanada takomillashdi va turizmni iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. "O'zbekturizm" Milliy kompaniyasi faoliyati doirasida turizm infratuzilmasini yaxshilash, mehmonxonalar tarmog'ini kengaytirish, sayyohlik xizmatlari sifatini oshirish bo'yicha ishlar olib borildi. Mazkur bosqichda turizm asosan madaniy-tarixiy yo'nalishda rivojlandi. Shu bilan birga, ziyorat turizmi ham asta-sekin shakllanib, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband kabi muqaddas qadamjolarga sayyohlar oqimi ortdi. Ichki turizm ham rivojlanib, aholining dam olish va sayohat qilish madaniyati kengaya boshladi. Biroq ushbu davrda ham ayrim muammolar mavjud edi. Xizmat ko'rsatish sifati xalqaro standartlarga to'liq mos kelmasligi, marketing va reklama tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi hamda turizm sohasida raqamli texnologiyalarning cheklangan qo'llanilishi shular jumlasidandir [6]. Umuman olganda, 2000–2016 yillar O'zbekistonda turizm sohasining barqarorlashuvi, infratuzilmaning kengayishi va xalqaro integratsiyaning kuchayishi bilan tavsiflanadi. Bu bosqich keyingi, ya'ni ochiqlik va islohotlar davri uchun mustahkam asos yaratib berdi. Uchinchi bosqich (2017-yildan hozirgacha) O'zbekistonda turizm sohasining eng muhim va tub burilish davri bo'lib, u islohotlar, ochiqlik siyosati hamda modernizatsiya jarayonlari bilan tavsiflanadi. Ushbu davrda turizm davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylantirildi va uni iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. 2017-yildan boshlab mamlakatda turizm sohasini liberallashtirish va xalqaro integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Eng muhim o'zgarishlardan biri viza tizimining soddalashtirilishi bo'lib, ko'plab davlatlar uchun vizasiz rejim joriy etildi, elektron viza (e-visa) tizimi yo'lga qo'yildi. Bu esa O'zbekistonga kiruvchi xorijiy sayyohlar oqimining sezilarli darajada oshishiga olib keldi. Shuningdek, "open sky" siyosati doirasida aviatsiya bozorini erkinlashtirish, yangi aviaqatnovlarni yo'lga qo'yish va xalqaro

aviakompaniyalarni jalb etish bo'yicha ishlar amalga oshirildi. Natijada O'zbekistonning transport logistika imkoniyatlari kengaydi va turizm uchun qulay muhit shakllandi. Bu davrda "Visit Uzbekistan" milliy brendi yaratilishi mamlakatni xalqaro turizm bozorida targ'ib qilishda muhim ahamiyat kasb etdi. Ichki turizmni rivojlantirishga ham katta e'tibor qaratildi. Aholining sayohat qilish madaniyati oshdi, yangi dam olish maskanlari va turistik yo'nalishlar ochildi. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda ichki turizmni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining muhim yo'nalishiga aylandi. Shuningdek, ziyorat turizmi ham jadal rivojlanib, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband kabi qadamjolar xalqaro ziyorat markazlariga aylana boshladi. Ekoturizm va tog' turizmi yo'nalishlari ham yangi bosqichga chiqdi. Umuman olganda, 2017-yildan hozirgi kungacha bo'lgan davr O'zbekistonda turizm sohasining ochiqlik, modernizatsiya va xalqaro integratsiya asosida jadal rivojlanish bosqichi bo'lib, mamlakatni jahon turizm xaritasida yanada mustahkam o'rin egallashiga xizmat qilmoqda [7].

Bugungi kunda O'zbekistonda turizm infratuzilmasi sifat va miqdor jihatidan sezilarli darajada kengayib, zamonaviy iqtisodiy talablarga moslashib bormoqda. So'nggi yillarda mamlakatda mehmonxona xo'jaligi, transport tizimi, ovqatlanish xizmatlari hamda sayyohlik logistikasini qamrab olgan kompleks infratuzilma shakllandi. Ayniqsa, yirik shaharlar va tarixiy markazlarda xalqaro standartlarga javob beradigan mehmonxonalar, butik-otel va oilaviy mehmon uylarining ko'payishi turizm xizmatlarining diversifikatsiyasini ta'minlamoqda. Transport sohasida ham sezilarli o'zgarishlar kuzatilmoqda. Aviatsiya aloqalarining kengayishi, yangi ichki va xalqaro reyslarning yo'lga qo'yilishi hamda temir yo'l tizimining modernizatsiya qilinishi sayyohlar harakatini ancha yengillashtirdi. Shu bilan birga, avtomobil yo'llarining yangilanishi va turistik marshrutlarning optimallashtirilishi hududlararo sayohat qilish imkoniyatlarini kengaytirdi [8]. Yirik shaharlar bilan bir qatorda chekka hududlarda xizmat ko'rsatish sifati va infratuzilma imkoniyatlarini yanada kengaytirish zarur. Bu

esa mintaqaviy turizm salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda ichki va tashqi turizm so'nggi yillarda parallel ravishda rivojlanib, bir-birini to'ldiruvchi muhim yo'nalishlarga aylandi. Ichki turizm aholining dam olish, sog'lomlashtirish va madaniy-ma'rifiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qilsa, tashqi turizm mamlakatning xalqaro turizm bozoridagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan. Ichki turizm sohasida sezilarli o'sish kuzatilmoqda. Aholining daromad darajasi va turmush tarzining o'zgarishi natijasida sayohat qilishga bo'lgan qiziqish ortdi. Mamlakat ichidagi tarixiy shaharlar, tog'li hududlar, ekologik toza dam olish maskanlari va ziyoratgohlar ichki sayyohlar uchun asosiy yo'nalishlarga aylangan. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlar bilan bir qatorda Chortoq, Chimyon, Amirsoy, Aydarko'l kabi rekreatsion hududlar ham ichki turizm oqimini kuchaytirmoqd [9].

O'zbekistonda ichki va tashqi turizmning kelajakdagi rivojlanish istiqbollari keng va ko'p yo'nalishli hisoblanadi. Avvalo, raqamli transformatsiya jarayonlarini chuqurlashtirish turizm sohasining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi. Elektron platformalar, sun'iy intellekt asosidagi xizmatlar va smart-turizm tizimlarining joriy etilishi sayyohlar uchun qulay va tezkor xizmatlarni ta'minlaydi. Shuningdek, hududiy turizmni rivojlantirish muhim istiqbol yo'nalishi hisoblanadi. Ayniqsa, O'zbekistonni Buyuk Ipak yo'li markazi sifatida targ'ib qilish strategiyasi mamlakatning turistik jozibadorligini yanada oshiradi. Umuman olganda, ichki va tashqi turizmning uyg'un rivojlanishi O'zbekistonning iqtisodiy o'sishi, mintaqaviy rivojlanishi va xalqaro imijining mustahkamlanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Kelgusida turizm sohasi mamlakat iqtisodiyotining eng tez o'suvchi va raqobatbardosh tarmoqlaridan biriga aylanishi kutilmoqda [7].

XULOSA

Demak, xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Davlatimiz tomonidan olib borilayotgan turizm siyosati, qonunchilik bazasi, vizaviy rejimning soddalashtirilishi, xalqaro hamkorlikning kengaytirilishi va xavfsizlik darajasi turizm oqimining oshishiga xizmat qiladi. Ochiq va barqaror siyosiy muhit xorijiy sayyohlar uchun mamlakat jozibadorligini oshiradi. Madaniy omillar ham turizm rivojida muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarixiy meros, milliy an'analar, urf-odatlar, me'moriy yodgorliklar va diniy qadamjolar orqali namoyon bo'ladi. Har bir xalqning madaniy boyligi turistik mahsulot sifatida katta qiymatga ega bo'lib, u sayyohlarni jalb qilishda asosiy rol o'ynaydi. Umuman olganda, O'zbekistonda turizm infratuzilmasi va xizmatlar sifati izchil rivojlanish yo'lida bormoqda. Kelgusida raqobatbardosh turizm bozori shakllanishi uchun sifat standartlarini oshirish, innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish hamda xalqaro tajribani faol tatbiq etish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Hayitboev R., Haydarov S., Abduxamidov S., Daminov M., Xamitov, M. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish. O'quv qo'lanma. – S.: SamISI, 2016.176 B.
2. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. – T.: «O'zbekiston faylafuslar jamiyati» nashriyoti, 2011.-273 B
3. Sharipov N. Ziyorat turizmi va uning rivoji. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – 192 B.
4. Safarov B.Sh. Mintaqaviy turizm xizmat bozorining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish // Monografiya. - Toshkent: «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» davlat ilmiy nashriyoti, 2013. – 150 B.

5. Hayitboev R., Haydarov S., Abduxamidov S., Daminov M., Xamitov, M. Turizm marshrutlarini ishlab chiqish. O'quv qo'llanma. – S.: SamISI, 2016.176 B.
6. Xudoyqulov S. O'zbekistonda turizmni rivojlantirish asoslari. – Toshkent: Fan, 2017. – 280 B.
7. Raxmatullayev J. Turizm infratuzilmasi va uni rivojlantirish yo'llari. – Toshkent: Innovatsiya, 2021– 240
8. Safarov B.Sh. Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya. - Toshkent: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2016. - 184 B.
9. Mamatqulov X.M. Turizm infratuzilmasi. O'quv qo'llanma. – T.: «O'zbekiston faylafuslar jamiyati» nashriyoti, 2011.-273 B.
10. Sharipov N. Ziyorat turizmi va uning rivoji. – Toshkent: Tafakkur, 2020. – 192 B.